

## PROBATSIIYA XIZMATI TASHKILIY TUZILISHI VA BOSHQARUV MEXANIZMI

*IIV Akademiyasi Huquqbuzarliklar profilaktikasi kafedrasida katta o'qituvchisi*

**Umaralieva Dilshodaxon Nabijonovna**

*O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi kursanti*

**Mamadaminov Azizbek Akram o'g'li**

**Annotatsiya:** Ushbu ilmiy maqolada O'zbekiston Respublikasida probatsiya xizmatining tashkiliy tuzilishi, huquqiy asoslari va boshqaruv mexanizmlari kompleks tarzda o'rganilgan. Probatsiya xizmati 2019 yil 1 yanvardan IIV tizimida Jamoat xavfsizligi departamenti tarkibida faoliyat yuritayotgani, markaziy va hududiy bo'linmalar ierarxiyasi, xizmatning asosiy vazifalari, funksiyalari, huquq va majburiyatlari, shuningdek probatsiya nazoratidagi shaxslar bilan ishlashning ilmiy-amaliy mexanizmlari tahlil qilingan. Maqolada O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Jinoyat kodeksi, Jinoyat-ijroiya kodeksi, 2024 yil 7 avgustdagi «Probatsiya to'g'risida»gi O'RQ-938 qonuni va bir qator prezident farmon hamda qarorlariga asoslangan tahlil o'tkazilgan. Boshqaruv mexanizmi bo'yicha esa qonuniylik, insonparvarlik, tabaqalashtirish va individual yondashuv, oshkoralik kabi prinsiplar asosida xizmatning amaliy faoliyati yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** probatsiya, probatsiya xizmati, tashkiliy tuzilish, boshqaruv mexanizmi, huquqiy asoslar, ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolar, ijtimoiy moslashtirish, probatsiya nazorati.

**Аннотация:** В данной научной статье комплексно исследованы организационная структура, правовые основы и механизмы управления службой пробации в Республике Узбекистан. Рассмотрены деятельность службы пробации с 1 января 2019 года в системе МВД в составе Департамента общественной безопасности, иерархия центральных и территориальных подразделений, основные задачи, функции, права и обязанности службы, а также научно-практические механизмы работы с лицами, находящимися под пробационным надзором. Проведён анализ, основанный на Конституции Республики Узбекистан, Уголовном кодексе, Уголовно-исполнительном кодексе, Законе «О пробации» ОРК-938 от 7 августа 2024 года, а также ряде президентских указов и постановлений. Практическая деятельность службы освещена через призму принципов законности, гуманизма, дифференциации и индивидуального подхода, открытости.

**Ключевые слова:** пробация, служба пробации, организационная структура, механизм управления, правовые основы, наказания, не связанные с лишением свободы, социальная адаптация, пробационный надзор.

Huquqiy davlat qurilishi jarayonida jinoyatchilikka qarshi kurashning samarali mexanizmlarini shakllantirish zamonaviy davlatchilikning ustuvor vazifalaridan biriga aylangan. Xususan, ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazo turlarini insonparvar tamoyillar asosida ijro etish va mahkumlarni jamiyatga qayta moslashtirishning muassasalashgan tizimini yaratish – bugungi kun talabi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida ushbu yo'nalishda amalga oshirilgan tub islohotlar mahsuli sifatida 2019 yil 1 yanvardan Probatsiya xizmati tashkil etilgan bo'lib, u o'zining tashkiliy tuzilishi, vakolat doirasi va boshqaruv mexanizmi jihatidan o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Probatsiya atamasi lotincha «probatio» – sinov so'zidan olingan bo'lib, xalqaro amaliyotda ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarning ijro etilishini ta'minlash va nazoratini olib borishni anglatadi. Tarixan bu institut AQShda 1878 yilda, Angliyada 1887 yilda «Birinchi mahkumni sud jarayoni to'g'risida»gi qonun qabul qilinishi bilan rasman paydo bo'lgan. Hozirgi kunda probatsiya xizmati AQSh, Daniya, Shvesiya, Finlandiya, Qozog'iston, Qirg'iziston va boshqa davlatlarda keng tatbiq etilgan.

O'zbekistonda probatsiya xizmatining huquqiy asosi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 noyabrdagi «Jinoyat-ijroiya qonunchiligini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4006-sonli Qarori hisoblanadi. Ushbu qaror asosida 2019 yil 1 yanvardan IIV tizimida Probatsiya xizmati va uning hududiy bo'linmalari tashkil etildi. Xizmat ilgari faoliyat ko'rsatgan jazoni ijro etish inspeksiyasidan tubdan farq qilib, uning asosiy vazifasi nafaqat jazoni ijro etishni tashkil qilish, balki nazorat ostidagi shaxsni kelgusida jinoyat sodir etmasligi borasida profilaktik tadbirlar olib borishdan iborat etib belgilandi.<sup>68</sup>

2024 yil 7 avgustdagi «Probatsiya to'g'risida»gi qonun probatsiyani alohida huquqiy hodisa sifatida mustahkamlab, uni «muayyan huquqdan mahrum qilish, majburiy jamoat ishlari, axloq tuzatish ishlari, ozodlikni cheklash tarzidagi jazolarning ijro etilishini ta'minlashga, mahkumlarga ijtimoiy-huquqiy va tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishga, shuningdek huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui» deb belgiladi. Bu qonun mamlakatimizdagi probatsiya faoliyatining yangi bosqichini belgilab berdi.<sup>69</sup>

Xalqaro standartlar nuqtai nazaridan ham probatsiya xizmati faoliyati muhim o'ringa ega. «Ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarni qo'llash bo'yicha minimal standart qoidalari (Tokio qoidalari)»da ta'kidlanishicha, a'zo davlatlar inson huquqlarini ta'minlash va jinoiy jazolar tizimini liberallashtirish orqali ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan jazolar qo'llanilishini kengaytirish va shaxsni ijtimoiy hayotga moslashtirishga bo'lgan ehtiyojlarni inobatga olishlari zarur.<sup>70</sup>

O'zbekiston Respublikasi IIV Jamoat xavfsizligi departamenti tarkibiga quyidagi xizmatlar kiradi: jamoat tartibini saqlash xizmati; huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmati; yo'l harakati xavfsizligi xizmati; probatsiya xizmati. Probatsiya xizmati ushbu departamentning tarkibiy

<sup>68</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 noyabrdagi «Jinoyat-ijroiya qonunchiligini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4006-sonli Qarori. Qaror asosida 2019 yil 1 yanvardan IIV tizimida Probatsiya xizmati va uning hududiy bo'linmalari tashkil etildi.

<sup>69</sup> O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 7 avgustdagi «Probatsiya to'g'risida»gi O'RQ-938-son Qonuni, 2-modda. Mazkur qonun probatsiyani mustaqil huquqiy hodisa sifatida birinchi bor qonun darajasida mustahkamladi.

<sup>70</sup> Ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarni qo'llash bo'yicha minimal standart qoidalari (BMT Tokio qoidalari, 1990), 1–4-qoidalar. Ushbu qoidalar a'zo davlatlar uchun probatsiya tizimini rivojlantirishda yo'l-yo'riq bo'lib xizmat qiladi.

bo'linmasi sifatida mustaqil boshqarma huquqiga ega bo'lib, probatsiya bo'linmalari faoliyatiga uslubiy rahbarlik qilish va uni muvofiqlashtirish vazifasini bajaradi.<sup>71</sup>

Probatsiya xizmatining tashkiliy tuzilishi uch pog'onali ierarxik tizimga asoslanadi:

Birinchi pog'ona – Markaziy apparat: O'zbekiston Respublikasi IIV Probatsiya boshqarmasi. O'z muhri, blan-kasi va shtampiga ega bo'lgan mustaqil tashkiliy bo'linma. Boshqarma boshlig'i Jamoat xavfsizligi departamenti boshlig'iga bo'ysunib, bir nafar o'rinbosarga ega.

Ikkinchi pog'ona – Hududiy boshqarmalar (bo'limlar): Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV, Toshkent shahar va viloyati IIV bosh boshqarmalari, barcha viloyatlar IIV boshqarmalaridagi probatsiya bo'limlari.

Uchinchi pog'ona – Tuman (shahar) bo'limlari (guruhlari): To'g'ridan-to'g'ri mahalla va fuqarolar bilan ishlash, probatsiya nazoratidagi shaxslarni kuzatish va ijtimoiy moslashtirish tadbirlarini amalga oshirishni ta'minlovchi pastki bo'g'in.

Probatsiya xizmatining ofitserlar tarkibidagi lavozimlari oliy yuridik yoki pedagogik ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar, yoxud mutaxassis-psixologlar hisobidan to'ldiriladi. Bu talabning belgilanishi xizmat xodimlarining kasbiy layoqatliligini ta'minlash va probatsiya nazoratidagi shaxslar bilan tarbiyaviy, psixologik hamda huquqiy jihatdan samarali ishlash zaruratidan kelib chiqadi.

Mahalla darajasida probatsiya xizmati profilaktika va probatsiya inspektorlari, patrul-post va yo'l-patrul xizmati xodimlari bilan kunlik uzluksiz hamkorlikda ishlaydi. Probatsiya inspektorlari zimmasiga profilaktik hisob va ma'muriy nazoratdagilarning shaxsini o'rganish hamda ularni ijtimoiy moslashtirish ishlarida profilaktika inspektorlariga amaliy-uslubiy ko'maklashish bo'yicha qo'shimcha vazifalar ham yuklatilgan.

Probatsiya xizmatining boshqaruv mexanizmi bir necha o'zaro bog'liq tarkibiy qismlardan iborat: huquqiy tartibga solish, tashkiliy boshqaruv, kadrlar siyosati, profilaktik va ijtimoiy-moslashtiruv faoliyati, nazorat va hisobot tizimi.

Boshqaruv prinsiplari:

Qonuniylik prinsipi: Probatsiya faoliyatini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa qonunchilik hujjatlari talablariga og'ishmay rioya etishni bildiradi. Ushbu prinsip Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 29-moddasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 2-moddasi hamda Konstitutsiyaning 14 va 115-moddalariga mos keladi.<sup>72</sup>

Insonparvarlik prinsipi: Probatsiya nazoratidagi shaxslarga nisbatan qiynoqqa solish, shafqatsiz yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo'llashga yo'l qo'yilmaydi. Intizomiy ta'sir choralari jismoniy azob berish maqsadini ko'zlamaydi.

Tabaqalashtirish va individual yondashuv prinsipi: Nazoratdagi shaxslarga nisbatan cheklovlar va majburiyatlar ularning yoshi, jinsi, sog'lig'i, xulq-atvori, sodir etgan jinoyatining

<sup>71</sup> O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 16 sentyabrdagi «Ichki ishlar organlari to'g'risida»gi O'RQ-407-son Qonuni, 7-modda. Probatsiya xizmati IIV tizimida Jamoat xavfsizligi departamenti tarkibida mustaqil boshqarma huquqiga ega bo'lib faoliyat yuritadi.

<sup>72</sup> Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948), 29-modda; Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (1966), 2-modda; O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahrirda), 14 va 115-moddalar.

xavflilik darajasi, ilgari javobgarlikka tortilganligi, yetkazilgan zararining qoplanganligini inobatga olgan holda tabaqalashtiriladi. Ijtimoiy moslashtirish choralari esa ijtimoiy-psixologik baholash natijalari asosida yakka tartibda qo'llaniladi.

Oshkoralik prinsipi: Probatsiya sohasidagi faoliyat to'g'risidagi axborotlar ommaviy axborot vositalari va IIV rasmiy veb-saytlarida e'lon qilinadi. Qonun bilan cheklangan axborot bundan mustasno.

Probatsiya boshqarmasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarni boshqa davlat organlari va tashkilotlari bilan hamkorlikda samarali tashkil etish; shartli hukm qilingan va muddatidan ilgari shartli ozod qilingan shaxslarning xulq-atvori ustidan ta'sirchan nazoratni amalga oshirish; nazorat ostidagilar va voyaga yetmaganlarning ijtimoiy moslashuvi hamda ishga joylashishiga amaliy ko'maklashish; qayta jinoyat sodir etish xavfini aniqlash va profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Funksional jihatdan probatsiya xizmati quyidagi sohalarda faoliyat yuritadi:

a) Jazolarni ijro etish ustidan nazorat: barcha jazo turlari bo'yicha ijro tashkil etish, probatsiya axborot tizimini yuritish, amnistiya va avf etish hujjatlari ijrosini ta'minlash.

b) Shartli hukm qilinganlar bilan ishlash: ularni probatsiya hisobiga olish, jazoning shartlilikini bekor qilish haqida taqdimnomalar kiritish.

v) Ijtimoiy moslashtirish va psixologik yordam: elektron ijtimoiy-psixologik portret tuzish, individual moslashtirish dasturi asosida ishlash, tibbiy, huquqiy, psixologik yordam ko'rsatish, ta'lim va kasb-hunar o'rgatish.

g) Profilaktik faoliyat: jinoyatga moyillik bo'yicha toifalash, individual profilaktik chora-tadbirlar belgilash, asl omillarni aniqlash va bartaraf etish to'g'risida taqdimnomalar kiritish.

d) Tarbiyaviy va huquqiy ta'sir choralari: qonunga itoatkor xulq-atvorni shakllantirish, vatanparvarlik, milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, taqiqlarni buzgan taqdirda huquqiy ta'sir choralari qo'llash.

#### BOSHQARUV MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son Farmoni probatsiya xizmatini yanada takomillashtirish bo'yicha muhim vazifalarni belgilab berdi. Shuningdek, 2021 yil 29 noyabrdagi O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasi asosida probatsiya inspektorlari faoliyatini baholashning reyting tizimi joriy etildi.<sup>73</sup>

Probatsiya xizmati boshqaruv mexanizmini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin: axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (probatsiya axborot tizimi) keng qo'llash; elektron kuzatuv vositalarini takomillashtirish; xizmat xodimlarining kasbiy mahoratini oshirish – yuridik, pedagogik va psixologik bilimlar integratsiyasi; nodavlat tashkilotlar, mahalla va fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikni

<sup>73</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son Farmoni, 65–67-band. Strategiyada probatsiya xizmatini raqamlashtirish va kadrlar salohiyatini oshirish alohida vazifa sifatida belgilangan.

kuchaytirish; xalqaro ilg'or tajribalarni, xususan skandinaviya modelini o'rganish va moslashtirib qo'llash.

2021 yilda mamlakatimizda jinoyat ishlari bo'yicha mahkumlangan shaxslarning 71 foiziga, 2022 yilda 74 foiziga ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazo turlari qo'llanilganligi probatsiya xizmatining amaliy ahamiyatini yanada oshirdi va kadrlar tayyorlash ehtiyojini vujudga keltirdi. Bunga javoban O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasida «Probatsiya faoliyati» mutaxassisligi bo'yicha yurist-psixologik mutaxassislar tayyorlash yo'lga qo'yildi.<sup>74</sup>

### **XULOSA**

Amalga oshirilgan tadqiqot asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Probatsiya xizmati O'zbekistonda 2019 yildan buyon faoliyat yuritib, uning huquqiy asosi muntazam rivojlanib borgan. 2024 yil qabul qilingan «Probatsiya to'g'risida»gi qonun esa sohani yangi sifat bosqichiga ko'tardi.

2. Probatsiya xizmatining uch pog'onali tashkiliy tuzilishi (markaziy – hududiy – tuman/shahar) samarali vertikal boshqaruvni ta'minlaydi.

3. Boshqaruv mexanizmi qonuniylik, insonparvarlik, tabaqalashtirish va individual yondashuv, oshkoralik prinsiplari asosida qurilgan bo'lib, profilaktik funksiyaga alohida e'tibor qaratilgan.

4. Probatsiya xizmati nafaqat jazo ijrosini tashkil etish, balki nazoratdagi shaxslarni jamiyatga qayta integratsiya qilishning kompleks mexanizmi sifatida shakllanmoqda.

5. Xizmat samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalar, xalqaro tajriba va kadrlar siyosatini takomillashtirish ustuvor yo'nalishlar hisoblanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 7 avgustdagi «Probatsiya to'g'risida»gi O'RQ-938-son Qonuni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 noyabrdagi «Jinoyat-ijroiya qonunchiligini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4006-sonli Qarori.

3. O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 16 sentyabrdagi «Ichki ishlar organlari to'g'risida»gi O'RQ-407-son Qonuni.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son Farmoni.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29 noyabrdagi «O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash» to'g'risidagi 27-son Farmoni.

6. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksi.

7. Umaraliev D.N. Probatsiya xizmati faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari: O'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2024. – 125 b.

<sup>74</sup> 2021 yilda mahkumlangan shaxslarning 71%, 2022 yilda 74%iga ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazo qo'llanilganligi IIV rasmiy statistikasi bilan tasdiqlanadi. Bunga javoban O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasida «Probatsiya faoliyati» mutaxassisligi joriy etildi.

8. Umaralieva D.N., Askarova I.P. Probatsiya faoliyati: Ma'ruzalar kursi. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2025/2026. – 370 b.

9. Ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarni qo'llash bo'yicha minimal standart qoidalari (BMT Tokio qoidalari, 1990).

10. Mahbuslar bilan muomala qilish bo'yicha minimal standart qoidalari (Nelson Mandela qoidalari, BMT).